Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 21-oktabr, № 221 (9392) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI BMT BOSH ASSAMBLEYASINING 81-SESSIYASI RAISINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 81-sessiyasi Raisi, Bangladesh Xalq Respublikasi tashqi ishlar vaziri Xalilur Rahmonni qabul qildi.



Yuqori martabali mehmon 21-22-oktyabr kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan “Bolalar farovonligiga investitsiya: kelajak avlodlar barqaror va adolatli taraqqiyoti sari yo‘l” mavzusidagi Jahon sammitida ishtirok etish uchun mamlakatimizga keldi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Xalilur Rahmonni BMT Bosh Assambleyasining 81-sessiyasi Raisi etib saylangani bilan samimiy tabriklab, mazkur maqomda tashrif buyurgan birinchi mamlakat O‘zbekiston ekanini alohida qayd etdi.

O‘z navbatida, Xalilur Rahmon O‘zbekiston Prezidentiga BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning samimiy salomini yetkazdi.

Muloqot chog‘ida BMT va uning tuzilmalari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash masalalari yuzasidan fikr almashildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 15 ta rezolyutsiyani qabul qildi, ularning ikkitasi joriy yilda ma’qullandi.

O‘zbekiston tashkilotning asosiy organlari va tuzilmalari ishida faol ishtirok etmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimiz 2035-2036-yillar uchun BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy bo‘lmagan a’zoligiga o‘z nomzodini ilgari surgan.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga qarshi kurashish hamda tinchlik madaniyati va dinlararo muloqotni mustahkamlash masalalarida konstruktiv hamkorlikni yanada rivojlantirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekani tasdiqlandi.

Ikki tomonlama munosabatlar haqida so‘z yuritilar ekan, Janubiy Osiyoning jadal rivojlanayotgan davlatlaridan biri Bangladesh bilan ko‘p qirrali sheriklikni yanada kengaytirishga tayyorlik bildirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

FAVQULODDA VAZIYATLARDA BOSH MEZON – INSON HAYOTINI SAQLAB QOLISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish tizimini takomillashtirish, suv omborlari va ularga tutash hududlardan foydalanishni tartibga solish hamda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Shaharlarning kengayishi, texnologik rivojlanish va iqlim o‘zgarishi qutqaruv xizmati oldiga yangi vazifalar qo‘ymoqda. Ayni paytda ayrim yong‘in-qutqaruv qismlarining joylashuvi, binolari va texnikasi tezkor yordam ko‘rsatish talablariga to‘liq javob bermaydi.

Davlatimiz rahbari tizimni yangilashda asosiy mezon inson hayotini saqlab qolish bo‘lishi kerakligini ta’kidladi. Buning uchun “oltin daqiqa” qoidasini amaliyotga joriy etib, shahar hududlarida qutqaruvchilarning yetib kelish vaqtini 5 – 7 daqiqaga, shahar markazlaridan tashqari hududlarda esa 15 – 20 daqiqaga tushirish vazifasi qo‘yildi.

Aholisi 250 mingdan ortiq tuman va shaharlardagi 25 ta yong‘in-qutqaruv qismini qayta tashkil etish va zamonaviy texnika bilan ta’minlash rejalari haqida axborot berildi. Shuningdek, murakkab sharoitlarda ishlaydigan “Madad” milliy ko‘p tarmoqli maxsus qutqaruv markazi, aviatsiya-qutqaruv bo‘limi hamda favqulodda vaziyatlarni boshqarish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot markazini tashkil qilish taklif etildi.

“112” yagona dispetcherlik xizmati faoliyatini takomillashtirish, murojaat kelib tushgan paytdan uning ijrosigacha bo‘lgan jarayonni kuzatish, tegishli xizmatlar o‘rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish masalalariga ham e’tibor qaratildi. Sohada raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan kengroq foydalanish zarurligi qayd etildi.

(Davomi 2-betda).

RAQAMLI TA’LIM EKOTIZIMI YoSHLAR BANDLIGIGA KO‘MAKLASHADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-oktyabr kuni raqamli ta’lim ekotizimini rivojlantirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Axborot texnologiyalari sohasida 2030-yilgacha 300 mingta ish o‘rni yaratish bo‘yicha belgilangan maqsadga joriy yilning o‘zida erishildi. Endi raqamli iqtisodiyotning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirish hisobiga 2030-yilga qadar yana 500 mingta ish o‘rni yaratish vazifasi qo‘yilmoqda.

Buning uchun yoshlarni o‘qitishdan boshlab, kasbiy ko‘nikmalarini tasdiqlash va ishga joylashtirishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oluvchi yagona raqamli ta’lim ekotizimini shakllantirish zarur. Taqdimotda 2030-yilgacha 5,5 million nafar yoshni an’anaviy va masofaviy shakllarda o‘qitishga qaratilgan yondashuvlar ko‘rib chiqildi.

Maktab o‘quvchilari uchun “Al-Xorazmiy vorislari” va “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihalarini kengaytirish, oliy ta’lim muassasalari hamda xususiy o‘quv markazlari imkoniyatlarini birlashtirish nazarda tutilmoqda.

Davlatimiz rahbari robototexnika, kompyuter o‘yinlarini yaratish, startaplar va boshqa istiqbolli yo‘nalishlarda yiliga 1 million nafar yoshni o‘qitish vazifasini qo‘ydi. Buning uchun milliy trenerlar korpusini shakllantirish, onlayn ta’lim platformalari va qisqa muddatli raqamli kurslarni tezroq ishga tushirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirib, ularning natijalarini amaliyotga keng joriy etish zarurligi ta’kidlandi.

(Davomi 2-betda).

YANGI ISH O‘RINLARI YARATISHDA BALIQCHILIK VA LIMONCHILIK IMKONIYATLARIDAN FOYDALANILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev intensiv baliqchilik loyihalarini jadallashtirish va energotejamkor limonchilik issiqxonalarini tashkil etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda intensiv usuldagi baliqchilikni kengaytirib, yiliga 1 million tonna baliq yetishtirish vazifasi qo‘yilgan. Taqdimotda bu maqsadga erishish uchun meliorativ tik quduqlar imkoniyatidan foydalanish rejalari Baliqchi tumani misolida ko‘rib chiqildi.

Tumandagi 24 ta quduq atrofida chavoq va ozuqa ta’minotidan tortib, baliq yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oluvchi intensiv baliqchilik majmualarini tashkil etish rejalashtirilgan. Har bir 50 sotixlik loyihada yiliga kamida 30 tonna forel balig‘ini yetishtirish va 10 ta ish o‘rni yaratish ko‘zda tutilmoqda.

Loyihalarni yagona tizimda boshqarish uchun baliqchilik xoldingini tashkil etish taklif qilindi.

Baliqchi tajribasini boshqa hududlarga tatbiq etish maqsadida 2027-yil 1-martga qadar respublikadagi 4 mingdan ziyod meliorativ tik quduqlarni xatlovdan o‘tkazish topshirildi. Baliq yetishtirishga yaroqli quduqlarni ilg‘or tadbirkorlarga davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruvga berish nazarda tutilmoqda.

(Davomi 2-betda).

Xalqaro anjuman

TURKIY DAVLATLAR PARLAMENTLARARO HAMKORLIGI YO‘LIDA

Turkiy davlatlar Parlament assambleyasi (TurkPA) parlamentlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, parlamentlararo muloqotni mustahkamlash va o‘zaro tajriba almashishga ko‘maklashadigan xalqaro tashkilot hisoblanadi. Kecha Bishkek shahrida TurkPA Kengashining 15-yalpi majlisi o‘z ishini boshladi.

Unda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O‘zbekiston parlamenti delegatsiyasi ishtirok etmoqda.

Mamlakatimiz delegatsiyasi qator yuqori darajadagi uchrashuvlarda, shuningdek, TurkPAning navbatdagi anjumanlarida kuzatuvchi sifatida qatnashishi hamda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkiya parlamentlari vakillari bilan birga turkiy davlatlar o‘rtasidagi parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarda ishtirok etishi ham nazarda tutilgan.

2

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

HAYOTIY ISLOHOTLAR VA TADBIRKORLAR MANFAATLARI KAFOLATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda Farmatsevtika xodimlari kunini belgilashga, moliyaviy sanksiyalarni qo‘llash bo‘yicha yagona va aniq huquqiy mexanizmlarni shakllantirishga, tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga, harbiy xizmatni o‘tashning nufuzi va jozibadorligini yanada oshirishga, sanoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga, chiqindilar bilan bog‘liq ishlar ijrosi borasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihalari, shuningdek, parlament nazorati faoliyatiga oid masalalar ko‘rib chiqildi.

Farmatsevtika xodimlari kuni belgilandi

Majlisda dastlab “Farmatsevtika xodimlari kuni belgilanishi munosabati bilan “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiyot xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib, farmatsevtika sohasi jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda yurtimizda 50 mingdan ortiq farmatsevtika mutaxassislari faoliyat yuritmoqda. 504 ta farmatsevtika ishlab chiqarish korxonasi, 478 ta distribyutor tashkilot va 14 mingdan ko‘p dorixonalar aholiga xizmat ko‘rsatmoqda.

3

Iftixor



SAMARQAND – JAHON GAVHARI

Samarqand... Asrlar kuylagan doston,
Minorlari chalar hazin tarona.
Uning yog‘dusidan yorishar jahon,
Bunda har g‘isht so‘ylar sirli afsona.

Har kecha yuz chayar oy arig‘ida,
Har tong gumbazlarga tirmashar oftob.
Moziy kitobining har varag‘ida
Samarqand muttasil yangragan xitob.

Zilol favvoralar poklikdan nishon,
Chillali kelinchak kokillariday.
Gullarga burkanib yotar bu makon,
Qadim Zarafshonning sohillarida.

Har zarra quyoshga talpingan kabi
Dunyo oqib kelar Samarqand tomon.
Bu kent – insoniylik asl maktabi
Bu shahar mehrga, oqibatga kon...

Asriy muammolar yechilgan bunda,
Raqiblar do‘st bo‘lib ochishgan quchoq.
Do‘stim, shu zaminda, shu qutlug‘ kunda,
Seni ham bag‘rimga bosayin bu choq.

Kel, so‘ylab berayin kechmishning ko‘hna
So‘nmas ertagini, asotirini.
El ichra dong‘ini taratgan o‘sha
Har barno qiz, oqil bahodirini.

Kel, so‘ylab berayin, yurak arzini
Va donishmand Temur tuzuklaridan –
Oriyat, yaxshilik va mardlik darsi
Xabar berib turar ming yil naridan.

Kel, so‘ylab berayin o‘sha charog‘on
Ulug‘bek nom bergan yulduzlar haqda.
Osmoni falakni ko‘zlab har qachon
Tuproqni ko‘targan ildizlar haqda.

Kel, so‘ylab berayin, haybati qaytgan
Raqibning yutoqqan ul nafasini.
Bugun dunyo ahli faxr-la aytgan
Har ulug‘, avliyo, allomasini.

Kel, so‘ylab berayin nechadan-necha
Millatga yo‘l ochgan baxtin damo-dam.
Ezgulik ishqida tuzgan ming reja,
O‘zidan ulug‘vor niyatini ham.

Do‘stim, bu ma’voga bosganda odim,
Unutma ajdodlar bergan saboqni.
Pokiza aylagin ko‘ngilning yodin,
Pok etib kir mudom ikki oyoqni.

Shoirman, shu elning g‘amini yerman,
Bilaman, so‘z aytmoq emasdir oson.
Samarqand – jo‘sh urgan yuraksan, derman,
Derman, sen yurakda eng katta doston!

O‘tkir RAHMAT.

RAQAMLI TA’LIM EKOTIZIMI YoSHLAR BANDLIGIGA KO‘MAKLASHADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Taqdimotda oliy ta’limda tayyorlanayotgan kadrlar malakasini texnologiyalar va mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga moslashtirish masalalari ham ko‘rib chiqildi. Sun’iy intellekt, mikrosxemalarni loyihalash, dron texnologiyalari va kompyuter o‘yinlarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishlarda ta’limni rivojlantirish, talabalarning amaliy loyihalarda ishtirokini kengaytirish taklif etildi.

Shuningdek, informatika o‘qituvchilarining sun’iy intellekt bo‘yicha bilimlarini oshirish va ularni sertifikatlash, oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun xalqaro raqamli ta’lim kurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Farg‘ona tajribasi asosida iOS dasturchilarini tayyorlash markazlarini tashkil etish, xususiy ta’lim markazlariga mentorlar tayyorlash takliflari ma’qullandi.

Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni ta’lim bilan bog‘lashga ham e’tibor qaratildi. Xususan, OTMlarda o‘rnatilgan tizimlar, mikroelektronika va buyumlar interneti bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash, muhandislik ishlanmalari va tadqiqot laboratoriyalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash yuzasidan takliflar bildirildi.

Yoshlarning olgan bilimi mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishi uchun “Raqamli yoshlar” platformasini rivojlantirish rejalari ham ko‘rib chiqildi. Unda ta’lim, ko‘nikmalar, til bilish darajasi va sertifikatlar haqidagi ma’lumotlarni jamlash, yoshlarga mos bo‘sh ish o‘rinlarini taklif qilish hamda ularning bandligini kuzatib borish ko‘zda tutilmoqda.

Raqamli ta’limga global texnologik kompaniyalarni keng jalb qilish zarurligi qayd etildi. O‘tgan yili ushbu yo‘nalishda 22 million dollar grant jalb qilingan. Tizimli hamkorlik orqali mazkur ko‘rsatkichni shu yil yakunigacha 60 million dollarga, 2030-yilga borib esa yiliga 100 million dollarga yetkazish topshirildi.

Joriy yilda jalb etiladigan grant mablag‘larining yarmini raqamli ta’limga, qolgan yarmini malaka oshirish dasturlari hamda chekka hududlarda raqamli ta’lim markazlarini tashkil etish, ularni sun’iy intellekt, robototexnika va dasturlashni o‘qitish uchun zamonaviy uskunalar bilan jihozlashga yo‘naltirilishi belgilandi.

Prezidentimiz raqamli ta’limda qamrov bilan birga o‘qitish sifati va uning bandlikka ta’siri ham asosiy mezon bo‘lishi kerakligini ta’kidladi. Mas’ullarga belgilangan maqsadlarga aniq dasturlar orqali erishish, hududlardagi imkoniyatlarni kengaytirish, xususiy sektor va xalqaro hamkorlar bilan ishlashni kuchaytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Shuningdek, Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish ishlarining borishi yuzasidan axborot berildi.

YANGI ISH O‘RINLARI YARATISHDA BALIQCHILIK VA LIMONCHILIK IMKONIYATLARIDAN FOYDALANILADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Shuningdek, Xonobodda sovuq suv baliqlarini yetishtirish va qayta ishlash, Ulug‘norda esa suv havzalari negizida baliqchilik loyihalarini amalga oshirish rejalari haqida axborot berildi.

Taqdimotning ikkinchi qismi Baliqchi tumani misolida limonchilikni rivojlantirishga bag‘ishlandi. Tumandagi to‘qqizta mahalla atrofidagi 100 gektar maydonda energotejamkor issiqxonalar qurib, ularni tayyor holda tadbirkorlarga taklif etish rejalashtirilmoqda. Limon yetishtirish, saralash, qayta ishlash, qadoqlash, saqlash va sotish ishlari yagona kooperatsiya zanjiriga birlashtiriladi.

Loyihaga ishsiz va kambag‘al oilalarni jalb etishga alohida e’tibor qaratildi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, 500 ta issiqxonada mahalliy oilalardan kamida 1 ming nafar kishi ish bilan ta’minlanadi. Limon ko‘chatlari hosilga kirguniga qadar oraliq ekinlar yetishtirish orqali qo‘shimcha daromad olish mumkin bo‘ladi.

Baliqchi tajribasi asosida kelgusi yil hududlarda jami 200 gektar maydonda kambag‘al oilalar va ishsizlar uchun energotejamkor issiqxona majmualarini barpo etish rejalashtirilgan. Bu ikki mingta oilaning daromadini oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Taqdimot yakunida davlatimiz rahbari kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan ushbu loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, aholini baliqchilik va limonchilikka o‘qitish xarajatlarini qoplab berish choralarini ko‘rish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

FAVQULODDA VAZIYATLARDA BOSH MEZON – INSON HAYOTINI SAQLAB QOLISH

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Suv omborlarida qutqaruv xizmatini kengaytirish zarurligi ham ta’kidlandi. Mavjud 56 ta suv omborining faqat to‘rttasida bunday xizmat yo‘lga qo‘yilgan. Shu bois “Karkidon” suv ombori misolida professional qutqaruv tizimini tashkil etish taklifi bildirildi. Qutqaruvchilarni tayyorlash texnikumida dual ta’lim asosida qutqaruvchi-g‘avvoslar tayyorlash, turizm obyektlari xodimlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va birinchi yordam ko‘rsatishga o‘qitish rejalashtirilmoqda.

Suv omborlaridan turizm maqsadida foydalanish imkoniyatlari ham ko‘rsatib o‘tildi. Hozircha beshta suv omborida turizm tashkil etilgan, yana 25 tasida bunday xizmatlarni yo‘lga qo‘yish imkoniyati bor. Mazkur hududlarga investitsiya jalb qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish va sayyohlar oqimini ko‘paytirishga xizmat qilishi mumkin.

Bunda xavfsizlik talablari ustuvor bo‘lishi ta’kidlandi. Turistik xizmatlarni sertifikatlash, tadbirkorlarning professional qutqaruv tuzilmalari bilan shartnoma tuzishini majburiy etib belgilash, dam olish maskanlarini qutqaruv qayiqlari, kuzatuv minoralari va suv chuqurligini ko‘rsatuvchi belgilar bilan jihozlash taklif qilindi.

Suv omborlari atrofida turizm xizmatlarini tashkil etgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash choralari ham taqdim qilindi. Ularga 2029-yil 1-oktyabrga qadar yer va mol-mulk soliqlarining yarmini to‘lash, GPS, qutqaruv va xavfsizlik uskunalari uchun bojxona to‘lovlarini 120 kunga kechiktirish yoki bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish nazarda tutilmoqda. Ushbu hududlardagi yer uchastkalarini sotishdan tushgan mablag‘larni tashqi muhandislik tarmoqlari va yo‘l infratuzilmasini rivojlantirishga yo‘naltirish taklif etildi.

Shuningdek, suv omborlarining texnik holati va xavfsiz ishlashini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar haqida axborot berildi. Yigirma beshta suv ombori joyiga chiqib o‘rganilgan. Xavfli o‘zgarishlarni erta aniqlash uchun mahalliy ogohlantirish tizimlari, videokuzatuv, seysmologik uskunalar va raqamli nazorat vositalarini kengroq joriy etish choralari ko‘riladi.

Taqdimot yakunida davlatimiz rahbari mas’ullarga qutqaruv xizmatining tezkorligini oshirish, suv omborlarida professional qutqaruv xizmatini yo‘lga qo‘yish va turizm obyektlarida xavfsizlik talablarini aniq belgilash yuzasidan topshiriqlar berdi.

O‘zA.

TURKIY DAVLATLAR PARLAMENTLARARO HAMKORLIGI YO‘LIDA

1

Dastlab anjuman qatnashchilari uchun Qirg‘izistonning “Ala-Archa” davlat tabiat bog‘ida etnomadaniy dastur tashkil qilindi.

Qirg‘iz xalqining boy madaniy merosi, milliy an’analari va ma’naviy qadriyatlarini namoyish etishga qaratilgan mazkur tadbirda parlament delegatsiyalari rahbarlari va faxriy mehmonlarga Qirg‘iz Respublikasi Jogorku Keneshi Torag‘asi Marlen Mamataliyev hamrohlik qildi.



Madaniy tadbir O‘rta asrlar ko‘chmanchi xalqlari madaniyati uslubida bezatilgan “Qirg‘iz ayılı” ko‘rgazma majmuasida bo‘lib o‘tdi. Mehmonlar milliy musiqa asboblari sadolari ostida an’anaviy libos, sovut-aslahalardagi qirg‘iz botirlari, milliy kiyimlardagi qizlar va oqinlar tomonidan tantanali kutib olindi. Ayni jarayon qirg‘iz xalqining asrlar davomida shakllangan mehmondo‘stlik an’analarini yorqin namoyon etdi.

Dastur davomida mehmonlar qirg‘iz xalqining turmush tarzi, urf-odatlari va hunarmandchilik an’analari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ldi. Jumladan, “Hunarmandlar xiyoboni”da milliy o‘tovlarning bezaklari, mohir hunarmandlar tomonidan yaratilgan noyob buyumlar hamda an’anaviy qirg‘iz milliy liboslari namoyish etildi.

Tadbirning diqqatga sazovor jihatlaridan biri – “Salbuurun” an’anaviy ovchilik san’ati namoyishi bo‘ldi. Unda burgut, kamon va taygan itlari bilan ov qiluvchi ovchilar qatnashib, qirg‘iz xalqining ko‘p asrlik ovchilik an’analari va milliy merosini namoyon etdi.

Shuningdek, Turkiy davlatlar Parlament assambleyasining sun’iy intellekt va texnologik taraqqiyot davrida parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan XV yalpi majlisi ham bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi delegatsiyamiz ham ishtirok etdi.

Senat Raisi o‘z so‘zida bugungi kunda sun’iy intellekt ta’lim, tibbiyot, iqtisodiyot va davlat xizmatlari sifatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratayotganini ta’kidladi. Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, inson huquqlari va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslarini mustahkamlashda parlamentlarning muhim o‘rniga e’tibor qaratdi. O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda qonunchilikdagi yangiliklar haqida ham ma’lumot berildi.

Majlisda parlamentlar o‘rtasida qonunchilik tajribasi almashinuvi, sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish bo‘yicha umumiy tavsiyalar ishlab chiqish va zamonaviy texnologiyalarni parlament faoliyatiga joriy etish yuzasidan takliflar bildirildi.

“Xalq so‘zi”.

“S5+1” – SAMARALI MULOQOT MAYDONI

Samarqandda “S5+1” formatidagi vazirlar uchrashuvi hamda Amerika – O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashining ikkinchi yig‘ilishi samarali yakunlandi. AQSh delegatsiyasining O‘zbekistonga tashrifi doirasida o‘tkazilgan biznes tadbirlari davomida savdo, investitsiya va texnologik hamkorlik sohalariga oid 54 ta bitim imzolandi. Bu bitimlarning umumiy qiymati 12 milliard dollarni tashkil etadi.

Dunyo nigohi

Mazkur bitimlar to‘plami sanoatni modernizatsiya qilish, transport va energetika infratuzilmasi, strategik ahamiyatga ega mineral resurslar, moliyaviy xizmatlar, raqamli texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash hamda ta’lim kabi keng ko‘lamli yo‘nalishlarni qamrab olgan.

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, Samarqandda O‘zbekiston va AQSh hamkorligi yo‘lida ochilgan yangi imkoniyatlar ikki mamlakat ishbilarmonlarining yangi bozorlarga birgalikda chiqishiga kuchli sur’at bag‘ishlaydi.

Quyida anjuman ishtirokchilarining fikr-mulohazalari e’tiboringizga havola etilmoqda.

So‘z – tadbir ishtirokchilariga

Tatyana BISTRUSHKINA, Amerika Savdo palatasining O‘zbekistondagi ijrochi direktori:

– Palatamiz Amerikadagi va Yevropadagi 110 ga yaqin yirik investorlar hamda O‘zbekistonning yirik kompaniyalarini birlashtiradi. Asosiy maqsadimiz – O‘zbekiston hukumati bilan hamkorlikda mamlakatga investorlarni jalb qilish.

Faoliyatimiz davomida ilk bor bunday yuqori darajadagi tadbir o‘tkazilmoqda. “S5+1” – Markaziy Osiyo davlatlari va AQSh tashqi ishlar vazirlari o‘rtasidagi muloqot platformasi doirasida biznes-forum tashkil etilgani juda muhim ahamiyatga ega. Bilasizmi, uchrashuvlarning amaliy natijalari hozirdan ko‘rina boshladi. Sessiyadan so‘ng salmoqli hujjatlar imzolandi. Ishonchim komilki, tez orada aniq natijalar va yangi loyihalar haqida ma’lumotlar paydo bo‘ladi.

O‘zbekistondagi vaziyat o‘n yil avvalgiga nisbatan tubdan o‘zgardi. Bu jarayonda Prezidentning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni juda katta. Bugun ko‘pchilik O‘zbekistonga kelishni, bu yerga sarmoya kiritishni va mamlakatda faoliyat yuritishni istamoqda.

Ma’ruzalarda tahlilchilarimiz ham O‘zbekistonning global tizimdagi o‘rni va mavqei tobora yuksalib borayotgani haqida gapirdi. Bu mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi ortib borayotganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston hukumati soliq tizimi hamda qonunchilik sohasida zarur sharoitlarni yaratdi. Bu boradagi ishlar izchil davom etmoqda.

Karl Mur, “Powerscape Global” kompaniyasi asoschisi va bosh direktori:

– O‘zbekistonga sarmoya kiritish istagida bo‘lgan 200 dan ortiq kompaniyalar vakillarining tashrif buyurganini ko‘rish iqtisodiyot tarixidagi eng e’tiborga molik voqealardan biridir. Bu mamlakatga trillionlab dollar miqdoridagi kapital va investitsiya imkoniyatlarining kirib kelishiga zamin yaratadi.

Menimcha, O‘zbekistonning kelajagi nihoyatda porloq. AQSh kompaniyalari bilan hamkorlik orqali o‘sish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Chunki Qo‘shma Shtatlar O‘zbekiston va butun mintaqa bilan hamkorlikni rivojlantirishga jiddiy yondashmoqda.

AQSh Davlat kotibi va elchisining ushbu tadbirni tashkil etish tashabbusi bilan chiqqani, buning uchun katta mehnat qilinganini alohida ta’kidlash kerak. Vazirlar bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar ham juda muhim bo‘ldi. Shaxsan men uchun bunday faollik va ishchanlik muhitini ko‘rish misli ko‘rilmagan holat.

Mamlakatning tabiiy resurslari kelajakda yangi boylik manbaiga aylanadi. Bu orqali energiya, tabiiy gaz, boshqa resurslar va kimyoviy mahsulotlar importini qisqartirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Natijada O‘zbekiston o‘z resurslariga tayangan holda uzoq muddatli energetik mustaqillikka erishish yo‘lida muhim qadam tashlashi mumkin.

Mamlakatda 1,5 milliard tonna ko‘mir zaxirasi mavjud. Demak, undan o‘nlab yillar davomida iqtisodiy farovonlik yaratish uchun foydalanish zarur. To‘g‘ri texnologiyalar qo‘llanilsa, bu jarayonning ekologik ta’sirini kamaytirish, karbonat angidrid chiqindilarini nazorat qilish va energiya ishlab chiqarishda zamonaviy talablarga rioya etish mumkin.

Sina Amidxozur, “Plug and play tech center” xalqaro innovatsion platformasining direktorlar kengashi a’zosi:

– O‘zbekistonda imkoniyatlar juda ko‘p. Men uchun mamlakatning o‘ziga xos jihati yoshlar salohiyatining yuqoriligi va ularning kelajakka umididir. Aynan yoshlar orqali texnologiyalar sohasini rivojlantirish mumkin.

Bizning biznesimiz orqali startaplar qo‘shimcha moliyalashtirishga ega bo‘ladi yoki o‘z faoliyatini kengaytirishi bilan yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Taxminan har 60 ming dollar miqdoridagi sarmoya bitta qo‘shimcha texnologik ish o‘rnini yaratishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, boshqa sohalarda ham yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lishiga turtki beradi.

Joriy yilda O‘zbekistonning texnologiyalar sohasiga 250 ming dollar sarmoya kiritdik. Kelgusi yilda investitsiyalarimizni yanada oshirishni ko‘zda tutyapmiz. Ammo gap faqat bizning sarmoyalarimiz haqida emas. Startaplarning boshqa venchur fondlari va xorijiy mamlakatlar investorlaridan olayotgan mablag‘lari ham yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qiladi.

Abdulaziz YO‘LDOSHEV (“Xalq so‘zi”).

SAYYOR QABUL – MUROJAATLAR YECHIMIDA MUHIM OMIL

Hududlarda aholi va tadbirkorlar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, ularni qiynayotgan muammolarga joyida yechim topish Senat faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri.

Senatorlar – hududlarda

Qashqadaryo viloyatida o‘tkazilgan sayyor qabulda ham fuqarolar murojaatlari tinglanib, qator masalalar yuzasidan amaliy choralar ko‘rildi.

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi Anvar To‘ychiyev boshchiligida viloyat qishloq va suv xo‘jaliklari, ekologiya va iqlim o‘zgarishi boshqarmalari mas’ullari ishtirokida tashkil etilgan qabulda 30 dan ortiq fuqarolar o‘z muammo va takliflarini bildirdi. Ularda fermer xo‘jaliklari faoliyati, suv tanqisligi, elektr ta’minoti, tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy masalalar qamrab olindi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish natijasida bir qancha muammolar o‘z o‘rnida ijobiy hal etildi. O‘rganilishi talab qilinadiganlari yuzasidan mas’ullarga tegishli topshiriqlar berilib, ularning ijrosi senator nazoratiga olindi.

Sayyor qabulda ko‘tarilgan masalalarning amaliy yechimi Qarshi tumanidagi “Grend Xaus” MCHJ faoliyati misolida ham namoyon bo‘ldi. Yangi bog‘ hududida joylashgan 2 gektarli issiqxona rahbari kuz-qish mavsumida bodring yetishtirish uchun tuproqni tayyorlash, tahlildan o‘tkazish va ko‘chat ekishda yordam so‘rab murojaat qilgan edi.

Viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi mutaxassislari tomonidan issiqxona tuprog‘i tahlildan o‘tkazilib, bodringning “Neva” navli ko‘chatlarini ekishda amaliy yordam ko‘rsatildi. Natijada 2 gektar maydonga 36 ming tup bodring ko‘chati ekildi. Bu tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish va mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Qarshi shahridagi Oydin mahallasida ko‘p qavatli uylar aholisi chiqindilarni to‘plash va vaqtincha saqlash uchun maxsus joy yetishmasligi masalasini ko‘targan edi. Ushbu murojaat ham qo‘mita nazoratiga olinib, tegishli mas’ullar ishtirokida o‘rganildi.

Ko‘rilgan choralar natijasida chiqindilarni vaqtincha saqlash uchun yangi shoxobcha qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu hududning sanitariya holatini yaxshilash va aholi uchun qulay maishiy sharoitni yaratishga qaratilgan muhim amaliy natija bo‘ldi.

Senator va yoshlar

SOG‘LOM TURMUSH TARZI – MAZMUNLI UMR GAROVI

Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisining o‘rinbosari Oral Ataniyazova Nukus shahri hamda Qonliko‘l tumanidagi umumta’lim maktablarining 9 – 11-sinf o‘quvchilari va pedagoglari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

250 dan ortiq o‘quvchilar va 30 dan ziyod pedagoglar qatnashgan uchrashuvda o‘smirlar sog‘lig‘ini mustahkamlash, ularning salomatlik bo‘yicha bilim va xabardorlikni oshirish masalalariga e’tibor qaratildi.

Ochiq muloqot davomida o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi, salomatlikni asrash va sog‘lom hayot kechirish bo‘yicha tavsiyalar bilan tanishdi.

Shuningdek, senator Qoraqalpog‘iston tibbiyot institutining yosh olimlari bilan ham uchrashdi. Ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va olib borish masalalariga bag‘ishlangan seminarda tadqiqot mavzusini to‘g‘ri tanlash, ilmiy ishning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini belgilash, natijalarning ilmiy asoslanganligini ta’minlash kabi masalalar ko‘rib chiqildi.

“Xalq so‘zi”.

Hukumat qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq, oktyabr oyida Toshkent shahrida «Ibn Sino – G‘arb va Sharq falsafiy tafakkurining buyuk namoyandasi» mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkaziladi.

Munosabat

STRATEGIK SHERIKLIKNING ASOSIY TAYANCHI

O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi sheriklik so‘nggi yillarda yangi yo‘nalishlarda rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalar sohasidagi hamkorlik uchun keng imkoniyatlar ochilyapti.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning AQSh Davlat kotibi Marko Rubio bilan uchrashuvi hamda Amerika – O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashining ikkinchi yig‘ilishi bu borada muhim qadam bo‘ldi.

O‘zbekiston va AQSh o‘rtasida Kengaytirilgan strategik sheriklik muloqoti yo‘lga qo‘yilgani ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Uning birinchi yig‘ilishi yakunlari bo‘yicha qator hujjatlar, jumladan, koinotni tinch maqsadlarda o‘zlashtirish sohasidagi “Artemida” bitimlari imzolandi.

Iqtisodiy hamkorlik strategik sheriklikning asosiy tayanch nuqtalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Yil boshidan buyon o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 35 foiz oshdi. Iqtisodiy hamkorlik dasturi doirasida fuqaro aviatsiyasi, avtomobilsozlik, konchilik, energetika, qishloq xo‘jaligi, raqamlashtirish va moliya sohalarida yirik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Shu jihatdan, xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratish, ortiqcha ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish va loyihalarni amalga oshirishni osonlashtirishga qaratilgan yondashuvlar muhim. O‘zbekistonlik tadbirkorlarning ham bu jarayonda faol qatnashishi, xorijiy sheriklar bilan birgalikda yangi loyihalarni amalga oshirishi alohida ahamiyatga ega.

Hamkorlikning yana bir istiqbolli jihati – muhim minerallarni qayta ishlash, energetika, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohalariga e’tibor qaratilayotgani. Bugun aynan shu yo‘nalishlarda tajriba almashish va zamonaviy yechimlarni joriy etish mamlakatimizning kelgusi taraqqiyoti uchun muhim.

Shuningdek, ikki davlat o‘rtasidagi ta’lim va madaniy aloqalarning kengayib borayotgani ham quvonarli. Chunki hamkorlik faqat savdo yoki investitsiya bilan cheklanmaydi. Bilim va tajriba almashish, mutaxassislar tayyorlash ham uzoq muddatli rivojlanish uchun zarur.

2035-yilgacha mo‘ljallangan savdo-investitsiyaviy va texnologik hamkorlik dasturini ishlab chiqish taklifi ham e’tiborga molik. Buni izchil davom ettirish va bugun boshlangan tashabbuslarni uzoq muddatli loyihalarga aylantirishga xizmat qilishi mumkin.

Bu hamkorlikda eng asosiysi – erishilgan kelishuvlarning amalda qanday natija berishi. Yangi loyihalar ishga tushsa, ishlab chiqarish rivojlansa, zamonaviy texnologiyalar kirib kelsa, bundan iqtisodiyotimiz ham, tadbirkorlarimiz ham manfaat ko‘radi. Yangi ish o‘rinlari yaratilib, yoshlarimiz uchun ham qo‘shimcha imkoniyatlar paydo bo‘ladi.

Shuhrat ASLANOV,
Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi a’zosi.

YANGI IQTISODIY MARRALAR SARI

Samarqandda O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi hamkorlikning yangi yo‘nalishlari muhokama qilinib, ikki mamlakat munosabatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan muhim kelishuvlarga erishildi. Bu jarayonda siyosiy muloqot bilan bir qatorda iqtisodiy hamkorlik, investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarga alohida e’tibor qaratilayotgani muhim.



Davlatimiz rahbarining AQSh Davlat kotibi Marko Rubio bilan uchrashuvi hamda Amerika – O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashining ikkinchi yig‘ilishi tomonlar munosabatlarining amaliy mazmunini yanada boyitdi. Eng muhimi, erishilgan kelishuvlarni aniq loyihalarga aylantirish, yangi sarmoyalarni jalb etish va uzoq muddatli hamkorlik uchun mustahkam asos yaratish masalalari kun tartibidan o‘rin oldi.

Amerika – O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashi doirasida umumiy qiymati qariyb 12 milliard dollarlik 54 ta kelishuv va istiqbolli tashabbusning shakllantirilgani alohida ahamiyatga ega. Endi asosiy vazifa – ushbu kelishuvlarni izchil amalga oshirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, zamonaviy texnologiyalarni olib kirish va aholi uchun munosib ish o‘rinlarini yaratishdan iborat.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Plug and Play” tamoyili asosida investorlarga tayyor infratuzilma va zarur ruxsatnomalar bilan ta’minlangan loyihalarni taklif etish tashabbusi ham e’tiborga molik. Bunday yondashuv tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratish, ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish va investitsiyalarni tezroq amaliy natijaga aylantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, muhim minerallarni chuqur qayta ishlash, zamonaviy energetika, ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari, sun’iy intellekt va raqamli yechimlar sohalarida hamkorlikni kengaytirish katta istiqbollarga ega. Bu yo‘nalishlar O‘zbekistonning xomashyo yetkazib beruvchi mamlakat sifatida emas, balki yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtiruvchi davlat sifatida rivojlanishi uchun muhimdir.

2035-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan savdo-investitsiyaviy va texnologik hamkorlik dasturini ishlab chiqish taklifi esa ikki mamlakat munosabatlariga uzoq muddatli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Bunday dastur yangi loyihalarni tizimli rejalashtirish, mavjud to‘siqlarni bartaraf etish va o‘zaro manfaatli tashabbuslarni izchil amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin.

O‘zbekiston – AQSh strategik sherikligining mustahkamlanishi, avvalo, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlar demakdir. Ulardan samarali foydalanish esa investitsiyalarni ishlab chiqarishga, texnologiyalarni iqtisodiy o‘sishga, hamkorlikni esa xalqimiz farovonligiga xizmat qildira olishimizga bog‘liq.

Samarqanddagi uchrashuvlar ana shu maqsadlar yo‘lida muhim qadam bo‘lib, O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o‘rnini mustahkamlash va milliy taraqqiyot uchun yangi istiqbollarni ochishga xizmat qiladi.

Hilola YUSUPOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

HAYOTIY ISLOHOTLAR VA TADBIRKORLAR MANFAATLARI KAFOLATI

1

Qonun loyihasiga ko‘ra, amaldagi qonunda “Tibbiyot xodimlari” degan so‘zlar “Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari” degan so‘zlar bilan almashtirilib, noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiyot va farmatsevtika xodimlari kuni” etib belgilanishi nazarda tutilmoqda.

Baxtiyor ARTIQOV,
Mehnat, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi raisi o‘rinbosari:



– Aytish mumkinki, ushbu o‘zgartirish “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi hamda “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlarda qo‘llaniladigan tushunchalar bilan uyg‘unlikni ta’minlaydi. Qonun loyihasining qabul qilinishi jamiyatda farmatsevtika xodimlarining mavqeini oshirish, ularni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga keng yo‘l ochadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Formali kiyim-boshdan foydalanish mas’uliyati

“O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 209^1-moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish haqida”gi qonun loyihasi uchinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, keyingi yillarda ayrim tashkilotlar, idoralar va hatto fuqarolar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan formali kiyim-boshga adashtirib yuborish darajasida o‘xshash kiyimlardan foydalanish yoki ayrim tashkilotlar tomonidan o‘z xodimlari uchun shunday formalarni joriy etish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa fuqarolarni chalg‘itishi, davlat organlari obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatishi hamda ayrim shaxslarga o‘zini davlat organi xodimi sifatida ko‘rsatib, odamlar ishonchini suiiste’mol qilishga sharoit yaratishi mumkin. Natijada haqiqiy davlat xizmatchisini boshqa shaxsdan ajratish qiyinlashadi.

Shu munosabat bilan qonun loyihasi orqali Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga davlat organlarining tasdiqlangan harbiy yoki idoraviy formali kiyim-boshiga adashtirib yuborish darajasida o‘xshash hamda unga xos farqlovchi belgilar va (yoki) ramzlarga ega formani joriy qilganlik yoki undan foydalanganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilash taklif etilmoqda.

Belgilanayotgan normalar, eng avvalo, fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, davlat organlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, davlat xizmati obro‘sini saqlash hamda formali kiyim-boshlardan noqonuniy va g‘arazli maqsadlarda foydalanishning oldini olishga qaratilgan.

Qonun loyihasini takomillashtirish jarayonida huquqni qo‘llash amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli talqinlarning oldini olishga alohida e’tibor qaratildi.

Qonun loyihasi qabul qilinib, Senatga yuborildi.

Harbiy xizmatni o‘tash tartibi takomillashtirilmoqda

Majlisda “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga qo‘shimchalar va o‘zgartirish kiritish haqida”gi qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlash lozimki, keyingi yillarda milliy armiyamiz salohiyatini oshirish, harbiy xizmatni o‘tash uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, harbiy xizmatchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni ma’naviy va kasbiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasida islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Shu maqsadni ko‘zlagan mazkur qonun loyihasi harbiy xizmatchilarning kasbiy salohiyatini oshirish, uchuvchi mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasidan samarali foydalanishga qaratilgan.

Loyiha bilan oliy harbiy, shuningdek, xorijiy oliy harbiy ta’lim muassasalarining uchuvchi mutaxassisligi bo‘yicha bitiruvchilari bilan yangi shartnoma tuzishning huquqiy asoslarini belgilash nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o‘tashning nufuzi va jozibadorligini yanada oshirish hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash va kelgusida harbiy xizmatga jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishi qayd etildi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Moliyaviy jarimalarni to‘lashda yengilliklar berilmoqda

Deputatlar tomonidan ko‘rib chiqilgan navbatdagi hujjat – moliyaviy jarimalarni qo‘llash tartibini yengillashtirish, ular ustidan shikoyat qilish hamda noqonuniy undirilgan mablag‘larni qaytarishga qaratilgan qonun loyihasi bo‘ldi.

Ushbu hujjat moliyaviy jarimalarni qo‘llashning yagona, aniq va shaffof tartibini belgilash, moliyaviy sanksiyalarni ixtiyoriy va yengillashtirilgan tartibda ijro etish mexanizmlarini joriy qilishga qaratilgan.

Qonun loyihasida moliyaviy jarima qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlar bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilganda, qonunga xilof ravishda undirilgan mablag‘larni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarish orqali tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza etish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, moliyaviy javobgarlikni qo‘llash tartibini yanada yengillashtirish belgilanmoqda. Bu esa tadbirkorlarni asossiz yoki ortiqcha moliyaviy jazolardan himoya qilishga imkon beradi.

Loyiha bilan moliyaviy jarima solish to‘g‘risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab bir oy muddatda jarima miqdorining ellik foizini ixtiyoriy ravishda to‘lash sharti bilan jarimaning qolgan qismini to‘lashdan ozod etish yoki jarimani olti oy davomida bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati ham yaratilmoqda.

Moliyaviy jarima solish to‘g‘risidagi qaror bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilganda, jarima summasini qisqa muddatlarda qaytarish, kechiktirilgan taqdirda esa Markaziy bank asosiy stavkasining uch yuzdan biriga teng miqdorda foiz to‘lash tartibi joriy etilmoqda.

Dilmurod ISMOILOV,
Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi a’zosi:



– Qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash davomida mas’ul qo‘mita tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi. Mazkur hujjat huquqbuzarliklarni ixtiyoriy ravishda bartaraf etish, davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida bu boradagi munosabatlarni yanada soddalashtirishga qaratilgan bo‘lib, unda belgilangan tartiblar tadbirkorlarga yengillik yaratish, ularni asossiz jarimalardan asrashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Tadbirkorlarning huquqlarini sud orqali himoya qilishda yangi mexanizmlar

Majlisda “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 11^1-moddasiga tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish haqida”gi qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda muhokamadan o‘tkazildi.

Ushbu hujjat tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali yanada ishonchli himoya qilish, tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha nizolarni ko‘rib chiqishda iqtisodiy sudlarning vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan. Amalda tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha aktivlarni belgilangan muddatlarda qaytarish ta’minlanmagan taqdirda, rezidentlarga qaytarilmagan aktivlar summasidan kelib chiqib moliyaviy jarimalar qo‘llaniladi.

Huquqni qo‘llash amaliyoti tahlili ayrim holatlarda tadbirkor tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun o‘ziga bog‘liq barcha choralarni ko‘rgan bo‘lsa-da, xorijiy hamkorning harakatlari, to‘lov tizimlaridagi cheklovlar yoki boshqa obyektiv omillar sababli aktivlarni o‘z vaqtida qaytarish imkoni bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, amaldagi tartib sudlarga bunday holatlarni to‘liq inobatga olib, jarima miqdorini mutanosib ravishda kamaytirish imkonini yetarlicha bermaydi.

Shu bois qonun loyihasi bilan javobgarlikni yengillashtiruvchi hech bo‘lmaganda bitta holat mavjud bo‘lganda, jarimani sud tomonidan 50 foizga kamaytirish nazarda tutilmoqda.

Ulug‘bek QOBULOV,
Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi a’zosi:



– Loyihani ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida aktivlarning aynan yarmini qaytargan tadbirkorlarga ham ushbu yengillikni tatbiq etish belgilangani deputatlarning biznes manfaatlariga e’tiborining amaliy ifodasidir. Mazkur o‘zgarishlar insofli tadbirkorlar zimmasidagi moliyaviy yukni sezilarli yengillashtirib, aylanma mablag‘larini saqlab qolish va faoliyatini barqaror davom ettirish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Sanoat xavfsizligi talablarini buzganlik uchun javobgarlik kuchaytiriladi

Deputatlar sanoat xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi o‘qishda moddama-modda ko‘rib chiqdi.

U sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta’minlash, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariyalar va baxtsiz hodisalarning oldini olish, shuningdek, bu borada mas’ul shaxslarning javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan. Xususan, Jinoyat kodeksiga sanoat xavfsizligi talablarini buzish oqibatida fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazish bilan bog‘liq holatlar uchun qat’iy javobgarlik choralarini belgilashni nazarda tutuvchi normalar kiritilmoqda. Bu orqali inson hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soluvchi huquqbuzarliklarga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini kuchaytirish ko‘zda tutilgan.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga kiritilayotgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar esa sanoat xavfsizligi talablariga rioya etmaganlik, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida davlat nazoratini tashkil qilmaganlik, avariyalarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etishga tayyorgarlik ko‘rish talablarini bajarmaganlik uchun mansabdor shaxslarning javobgarligini belgilash va kuchaytirishni nazarda tutadi. Qolaversa, sohada amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, vakolatli organlarning vazifalari aniqlashtirilmoqda.

Farhod ZAYNIYEV,
Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari:



– Qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida uning normalari deputatlar taklif-tavsiyalari asosida huquqiy jihatdan takomillashtirildi. Muhokamalar davomida deputatlar hujjatda nazarda tutilgan normalar yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirib, ularning mazmuni va amaliyotda qo‘llanilishiga doir takliflarni ilgari surdi. Albatta, bu hujjatni maromiga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Chiqindilar bilan bog‘liq ishlar tartibga solinmoqda

Majlisda chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish bo‘yicha munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, tahliliy o‘rganishlar natijalari amaldagi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonunda ayrim bo‘shliqlar va havolaki normalar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Xususan, boshqaruv asoslari va asosiy yo‘nalishlar, chiqindilarga nisbatan mulkiy munosabatlar hamda sohani moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari to‘liq belgilab berilmagan. Bu esa yangi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilishni taqozo etmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlari, yuridik va jismoniy shaxslar huquq va majburiyatlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki aniqlashtirilmoqda.

Loyihada chiqindilarni tasniflash tizimini joriy etish, sohani iqtisodiy rag‘batlantirish, sanoat obyektlarida xavfli chiqindilarni, tibbiyot va biologik chiqindilarni yig‘ish, zararsizlantirish va utilizatsiya qilish tizimini tashkil etish nazarda tutilmoqda. Qurilish chiqindilaridan takroriy foydalanish, sanitariya tozalashga ixtisoslashtirilgan tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslari ham belgilab berilmoqda. Shuningdek, qattiq maishiy chiqindilarni qayta yuklash stansiyasiga hamda chiqindilar poligonlariga doir talablar qonun darajasida belgilanyapti.

Bundan tashqari, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish borasida qonun hujjatlari talablarining buzilishi tufayli yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash instituti joriy etilmoqda.

Ushbu hujjat chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni bajarishda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tizimli yuritishning mukammal huquqiy asoslarini yaratib berishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

SHHT doirasida xavfsizlik bo‘yicha hamkorlik mustahkamlanadi

Deputatlar “Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning xavfsizligiga tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha universal markaz to‘g‘risidagi Bitimni (Tyanszin, 2025-yil 1-sentyabr) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun loyihasini birinchi o‘qishda ko‘rib chiqdi.

Mazkur Bitimga muvofiq, Toshkent shahrida SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi negizida Xavfsizlikka tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha universal markazni tashkil etish nazarda tutilmoqda. Uning tarkibiga Axborot xavfsizligi markazi hamda Bishkek shahrida joylashgan Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish markazi kiritilishi belgilangan.

Universal markaz SHHTga a’zo davlatlarning vakolatli organlari o‘rtasida axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish, xavfsizlikka tahdidlarni birgalikda tahlil qilish, qo‘shma tadbirlar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, shuningdek, mutaxassislar malakasini oshirish bo‘yicha hamkorlikni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Bitimda markazning huquqiy maqomi, boshqaruv tizimi, moliyalashtirish tartibi hamda a’zo davlatlarning vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmlari ham belgilab berilgan.

Gulchehra TOJIBOYEVA,
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a’zosi:



– Mazkur xalqaro hujjatning ratifikatsiya qilinishi SHHT doirasida xavfsizlik bo‘yicha amaliy hamkorlikni kengaytirish, zamonaviy tahdidlarga tezkor va muvofiqlashtirilgan choralar ko‘rish, shuningdek, mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda O‘zbekistonning ishtirokini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

“Xalq so‘zi”.

MILLIY O‘ZLIGIMIZ VA MA’NAVIY YUKSALISH ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi hamda O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi tashabbusi bilan 21-oktyabr – O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan “Davlat tili – milliy yuksalishning va Yangi O‘zbekiston ma’naviy taraqqiyotining muhim asosi” mavzuida davra suhbati o‘tkazildi.

Davra suhbati

Unda deputatlar, davlat tilini rivojlantirishga mas’ul idoralar vakillari, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Fanlar akademiyasining O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti mutasaddilari, olimlar, yozuvchi va jurnalistlar, ekspertlar, partiya faollari, Yoshlar parlamenti a’zolari hamda talabalar ishtirok etdi.

Tadbirda davlat tilining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rnini mustahkamlash, uning qo‘llanish doirasini kengaytirish, o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi vazifalar muhokama qilindi.

Ta’kidlandiki, so‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan o‘zbek tilini rivojlantirish, uning davlat tili sifatidagi mavqeini yuksaltirish, xalqimiz ijtimoiy hayotidagi o‘rnini mustahkamlash va xalqaro miqyosdagi nufuzini ko‘tarishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotir.

Davra suhbatida davlat tilini rivojlantirishga oid qabul qilinayotgan hujjatlarning ijrosini ta’minlash, o‘zbek tilining sofligini saqlash, uni zamonaviy atama va tushunchalar bilan boyitish, yosh avlodning ona tiliga hurmatini oshirish masalalariga ham e’tibor qaratildi.

Qonunchilik palatasida qonun ijodkorligi jarayonida davlat tili me’yorlariga rioya etish, qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarning mazmunan aniq, til jihatdan ravon hamda keng jamoatchilik uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, qonun normalarining aniq va tushunarli ifodalanishi ularni bir xilda talqin qilish hamda amaliyotda to‘g‘ri qo‘llashning muhim shartlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, deputatlar nafaqat qonun ijodkorligi jarayonida, balki saylov okruglarida aholi bilan uchrashuvlar davomida ham davlat tiliga oid qonunchilik talablariga amal qilinishiga e’tibor qaratishi, bu boradagi deputatlik nazoratini kuchaytirishi zarurligi ta’kidlandi.

So‘z – ishtirokchilarga

Vasila FAYZIYEVA,
qo‘mita a’zosi:



– O‘zbek tili – millatimizning yuzi, milliy o‘zligimiz, g‘urur va iftixorimizning yorqin ifodasi. Uni asrab-avaylash, boy imkoniyatlarini namoyon etish va davlat tili sifatidagi nufuzini yanada yuksaltirish har bir fuqaroning nafaqat mas’uliyati, balki burchi ham.

Mamlakatimizda o‘zbek tilini rivojlantirish, uning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni hamda nufuzini ko‘tarish bo‘yicha islohotlar izchil amalga oshirildi. Xususan, 21-oktyabrning O‘zbek tili bayrami kuni sifatida belgilanishi ona tilimizning qadr-qimmatini ulug‘lash, uning ijtimoiy hayotdagi mavqeini mustahkamlash yo‘lidagi tarixiy qadam bo‘ldi. Eng muhimi, tilimizni o‘rganish va targ‘ib etishga e’tibor yanada kuchaytirilib, O‘zbek tili bayramini nishonlash bo‘yicha qonun qabul qilindi. Bu boradagi sa’y-harakatlar tufayli jamiyat hayotida davlat tilining qo‘llanish doirasi tobora kengayib, u xalq dilining chinakam ko‘zgusiga aylandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili ekanligi belgilab qo‘yilgani ham yurtimizda davlat tilining nufuzini yuksaltirishga qaratilayotgan yuqori e’tiborning yorqin namunasidir.

To‘ychi YOQUBOV,
qo‘mita a’zosi:



– Bugungi kunda Qonunchilik palatasida qonun ijodkorligi jarayonida davlat tili me’yorlariga rioya etish, qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarning mazmunan aniq, til jihatdan ravon va keng jamoatchilik uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu, fuqarolarning o‘z huquq va majburiyatlarini to‘g‘ri anglashi, qonun hujjatlarining bir xilda tushunilishi hamda amaliyotda to‘g‘ri qo‘llanilishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, qonunchilik sohasida davlat tili me’yorlariga izchil amal qilish o‘zbek tilining rasmiy-huquqiy uslubini takomillashtirish, uning davlat boshqaruvi tizimidagi nufuzini yanada mustahkamlashga zamin yaratadi.

“Xalq so‘zi”.

2026-yil 1-oktyabr holatiga O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokida 22 029 ta korxona faoliyat yuritmoqda.

ISTIQLOLIMIZ VA ISTIQBOLIMIZ TIMSOLI

Til – millatning o‘tmishi, buguni va kelajagini bir-biriga bog‘lab turuvchi ma’naviy ko‘prik. Unda ajdodlarning tajribasi, xalqning orzu-intilishlari, milliy tafakkur va madaniy xotira mujassam. Shu bois zabonga munosabat jamiyatning o‘zligini anglashi, davlatchilikni mustahkamlashi va kelajak avlod oldidagi mas’uliyati bilan bevosita bog‘liq.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozimligini ta’kidlagani bejiz emas.

Mustaqil davlatdagina inson o‘z lisonida emin-erkin so‘zlashi, milliy g‘ururining asosiy manbai deb bilishi, uni yanada rivojlantirish imkoniga ega bo‘lishi mumkin. Til yashasa, xalqning tarixi so‘zlaydi, ma’naviyati yashaydi, tafakkuri boyiydi. U zamon bilan birga rivojlansa, millatning kelajakka qarab intilishi uchun ham yangi imkoniyatlar ochiladi. Shu bois uni istiqbolimizning ham ko‘zgusi deya olamiz.

Quyida o‘zbek tilining jozibasi, lug‘at boyligi, ifoda imkoniyatlari naqadar keng ekani, uning milliy g‘ururimiz timsoliga aylangani haqida yurtdoshlarimiz, ijod ahli vakillari, xorijlik olimlar, yoshlarning fikr-mulohazalari bilan tanishasiz.

Agar so‘zi chindur – ko‘rinur yuzi



Munojat YO‘LCHIYEVA,
O‘zbekiston Qahramoni, Oliy Majlis Senati a’zosi:

– O‘zbek tili, aytish mumkinki, musiqiy so‘zlashuv vositasi. Yoshligimda Alisher Navoiy g‘azallari bilan aytilgan ashulalarni ko‘p tinglaganman. Shu mumtoz musiqa ohangida ulg‘aydim. Ijodimda buning ta’siri seziladi. Hindiston, Pokiston, Turkiyadagi musiqa festivallariga borganimda, muxlislar Navoiy, Bobur, Mashrab g‘azallari, ruboiylaridan so‘rashadi. Ona tilimizning go‘zalligidan hayratga tushib, sel bo‘lib tinglashadi.

Hazrat Navoiy o‘z asarlarini bir nechta tillar kesishgan ko‘p tilli tafakkur sathida ijod etgan. Uning badiiy nutqi, uslubi asosini bugungi jonli tilimizda faol qo‘llanayotgan o‘g‘uz, qipchoq, qarluq deb nomlanadigan uch katta lahja tashkil qiladi. Har biri o‘z tarkibida o‘nlab, hatto yuzlab dialekt va shevalarni mujassam etgan. Hozirgi o‘zbek jonli tili Alisher Navoiy ijodining o‘ziga xosligini ta’minlagan asos hisoblanadi. O‘zbekiston davlat konservatoriyasida saboq olayotgan talabalarga buyuk shoir g‘azallarining ijro yo‘lini o‘rgatayotganimda bunga e’tibor berib, har bir so‘z ustida soatlab ishlaymiz. Alisher Navoiyni anglash va uning g‘azallarini ijro qilish hamma san’atkorlarga ham nasib etavermaydi.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida “*Agar so‘zi chindur – ko‘rinur yuzi, Ko‘rinmas yuzi bo‘lsa, yolg‘on so‘zi...”, deya* faqat rost so‘zdagina inson mustaqil qiyofa kasb eta olishi, yolg‘on so‘zlash ma’naviy-axloqiy qiyofadan mahrumlik ekanini ta’kidlagan. Ulug‘ mutafakkir asarlarida tilimizning ifoda imkoniyatlarini misollar bilan ko‘rsatgan. Masalan, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida “*yig‘lamak”* so‘zining *“inchkirmak”, “ingramak”, “singramak”, “yig‘lamsinmak”, “siqtamak”, “o‘kurmak”* kabi o‘nlab sinonimlarini keltiradi. Qizig‘i, bu so‘zlarning ayrimlari bir-biriga zid ma’nolarni ham anglatadi. O‘zim ham yangi ashulaga g‘azal tanlayotganimda o‘ziga xos milliy ohangga ega, qalbga ta’sir qiluvchi so‘zlariga e’tibor beraman.

O‘zbek tili bayramida maktablarga uchrashuvga borsam, bolalar kichik sahnada “Navoiy tili”da viqor bilan so‘zlashadi. Asarlaridan parchalar o‘qishadi. Tadbir tugagach, ulug‘ bobomiz g‘azallarini ehtirom bilan o‘qigan o‘quvchilarning bir-biri bilan suhbatlarini eshitib, biroz ranjiyman. Milliy lison masalasi faqat rasmiy-marosimiy bayramlarda emas, doim eslanishi, mumtoz adabiyotimiz, san’atimizdan ulgi olib, ona tilimizni yanada boyitishga harakat qilishimiz kerak. Milliy tilimiz va tafakkurimizni asrab-avaylash, uni zamonaviy taraqqiyot talablari darajasiga ko‘tarish har birimizning burchimizdir.

Hikmatlar

Ko‘ngil maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalidin so‘z bil.

Alisher NAVOIY

Aql ko‘rki so‘zdir va til ko‘rki so‘z, Kishi ko‘rki yuzdir, bu yuz ko‘rki ko‘z.

Yusuf Xos HOJIB

Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak – millatning ruhini yo‘qotmakdur.

Abdulla AVLONIY



Akmal MUHAMMADOV olgan surat.

Ulug‘lar o‘giti

Nima uchun ko‘cha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladiyu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi?

Abdulla QAHHOR

* * *

Inson qalbi bilan hazillashmang siz,
Unda millat yashar, unda til yashar!

Abdulla ORIPOV

* * *

Ona tili umummillat mulkidir, demak, til oldidagi mas’uliyat ham umummilliy. Men o‘zbekman, degan har bir inson o‘zbek tili uchun qayg‘urmog‘i kerak.

Erkin VOHIDOV

Bebaho boyligimiz

Nodirbek ABDUSATTOROV,
Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zosi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi:

– Inson qayerda bo‘lmasin, ona tilidagi so‘zlarni eshitganda qalban o‘z yurtiga yaqinlikni his qiladi. Shu bois o‘z zabonimizni qadrlash, asrab-avaylash qaysi soha vakili bo‘lishimizdan qat’i nazar, barchamizning burchimizdir, desam, xato emas.

Xalqaro musobaqalarda O‘zbekiston bayrog‘i ko‘tarilib, davlatimiz madhiyasi yangragan lahzalar biz, sportchilar uchun unutilmas onlardan biri. Bayrog‘imiz ko‘tarilib, sof o‘zbek tilida xalqimizning bosh qo‘shig‘i yangraganda, shu ulug‘vor zaminga mansublik, o‘z xalqim bilan faxrlanish tuyg‘ulari beixtiyor ich-ichimdan kechadi. Qalbimda unga munosib bo‘lish shashti, shijoati jo‘sh uradi. Bu tuyg‘ularni ilk bor 2021-yil dekabr oyida Polsha poytaxti Varshavada o‘tkazilgan tezkor shaxmat bo‘yicha jahon chempionatida 17 yoshimda g‘olib chiqib, ushbu yo‘nalish tarixidagi eng yosh jahon chempioniga aylanganimda his qildim. 2022-yil Hindistonning Chennay shahrida o‘tkazilgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida O‘zbekiston terma jamoasi tarkibida oltin medalni qo‘lga kiritganimda ham yoki bu yil fevral oyida Niderlandiyaning Veyk-an-Zee shahrida o‘tkazilgan nufuzli “Tata Steel Chess” turnirining “Masters” guruhida g‘alaba qozonib, ushbu musobaqada chempion bo‘lganimda ham madhiyamiz baralla yangrarkan, o‘zbekligimdan, o‘zbek tilimdan iftixor tuydim. Shu yil sentyabr oyida Samarqandda o‘tkazilgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasida O‘zbekiston terma jamoasining g‘alabasiga hissa qo‘shib, birinchi taxtada individual oltin medalni ham qo‘lga kiritdim.



Men inglizchada ham ravon so‘zlasha olaman. Dunyoning turli mamlakatlarida bo‘lish, boshqa millat vakillari bilan muloqot qilish, ularning tili va madaniyati bilan tanishish insonning dunyoqarashini kengaytiradi. Biroq boshqa zabonlarni o‘rganish ona tilimizga bo‘lgan e’tiborni kamaytirmasligi kerak. Aksincha, o‘zga lisonlarni qanchalik yaxshi bilsak, ona tilimizning o‘ziga xosligi, boyligini ham shunchalik chuqurroq anglaymiz. O‘zligini anglagan inson, avvalo, o‘z tili va madaniyatiga, shuningdek, boshqa xalqlarning tili va madaniyatiga ham hurmat bilan qaraydi.

Millatimizning g‘ururi

Rahmatillo SHUKUROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:



– O‘zbek tili xalqimizning milliy o‘zligi, tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi va intellektual salohiyatini o‘zida mujassam etgan bebaho qadriyatdir. Uning nufuzini oshirish, boy adabiy merosini dunyoga tanitish hamda xorijiy xalqlar o‘rtasida o‘rganilishiga keng imkoniyatlar yaratish nafaqat madaniy-ma’rifiy, balki strategik ahamiyatga ega vazifa hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, yurtimizda o‘zbek tilini xorijda va mamlakatimiz hududida targ‘ib qilishga doir huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, mavjud imkoniyatlarni yagona tizimga birlashtirish masalasi dolzarb.

“Davlat tili haqida”gi Qonun o‘zbek tilining davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslarini belgilaydi. Uning 4-moddasi davlat tilini o‘rganish uchun sharoit yaratilishini, 7-moddasi esa o‘zbek tilini boyitish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Biroq xorijda o‘zbek zabonini o‘rganish hamda targ‘ib qilishning yagona milliy tizimini tashkil etish, uni moliyalashtirish, xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish va natijalarni baholash masalalarini alohida, batafsil tartibga solish zarurati saqlanib qolayotir.

Prezidentimizning tegishli farmoni bilan tasdiqlangan 2020 – 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni hamda nufuzini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demak, o‘zbek tilini targ‘ib etish bo‘yicha tegishli huquqiy zamin shakllangan. Bu borada xorijiy universitetlar bilan uzoq muddatli kelishuvlar tuzish, soha o‘qituvchilarini tizimli yuborish, darsliklar va raqamli resurslarni yaratish hamda barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirishga alohida urg‘u berish lozim. O‘zbek lisonini xorijda targ‘ib qilishning yagona milliy dasturi va mas’ul operatorini belgilash, “Davlat tili haqida”gi Qonunni xorijda til targ‘ibotiga oid norma bilan to‘ldirish, “Uzacademy” platformasini to‘liq milliy raqamli ta’lim tizimiga aylantirish, “O‘zbek tili elchilari” dasturini yo‘lga qo‘yish kabi masalalarga e’tibor qaratilishi o‘z samaralarini beradi.

Zero, o‘zbek tilining xalqaro maydondagi nufuzi, avvalo, uning zamonaviy ilm-fan, ta’lim, adabiyot va madaniyat tili sifatidagi imkoniyatlarini dunyoga qanchalik keng ochib bera olishimizga bog‘liq. Bu esa milliy merosimizni asrash bilan birga, uni jahon hamjamiyatiga zamonaviy va ta’sirchan vositalar orqali yetkazishni talab etadi.

O‘zbek xalq maqollaridan

- *Til – aql bezagi.*
- *Til – dil kaliti.*

Mehr tili

Vali Savash YELOK,
Anqara Hoji Bayram Vali universiteti professori, Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot sovrindori (Turkiya):



– O‘zbek adabiyoti va tiliga talabaligimdan mehr qo‘ydim. 2007-yilda Erkin Vohidov she’rlarida til va uslub masalasiga bag‘ishlangan nomzodlik ishimni himoya qilish jarayonida o‘zbek zabonining naqadar go‘zalligini teran his qildim. 2009-2010-yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti (hozirgi universitet)ning turkiy tillar bo‘limida ilmiy izlanishlar olib borganman. Nazarimda, bir xalqni yaxshiroq bilishning eng yaxshi yo‘li – uning adabiyotini o‘qish, tilini chuqurroq o‘rganish. O‘zbek hikoyalarini o‘qiganimda sodda va mehribon, har so‘zida o‘zbekona maqol va hikmatlarni qo‘shib gapiradigan topqir, dono, bag‘rikeng insonlar ko‘z o‘ngimga keladi.

2019-yilda Turkiyada nashr etilgan qator to‘plamlar orqali o‘zbek hikoyalarini turk o‘quvchilariga yetkazishga muvaffaq bo‘ldim. Ayniqsa, taniqli yozuvchi Xayriddin Sultonning “Bunchalar shirinsan, ey achchiq hayot” asarini turkchaga tarjima qilganimda o‘zim ham ma’nan va ruhan o‘sdim. Alisher Navoiydan tortib bugungi zamon ijodkorlarigacha bo‘lgan o‘zbek adabiyoti juda katta ma’naviy boylikka ega. Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Erkin A’zam, Shoyim Bo‘tayev, Nazar Eshonqul, Zulfiya Qurolboy qizi, Luqmon Bo‘rixon, Xurshid Do‘stmuhammad, Isajon Sulton kabi yozuvchilarning asarlarini turk tiliga tarjima qilish jarayonida har bir ijodkorning o‘ziga xos olami, zaboni va uslubi borligini yanada chuqurroq angladim.

Albatta, tarjimachilik osonmas. Ayniqsa, o‘zbek va turk tillari bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, har birining o‘ziga xos ifoda usuli, ohangi va ma’no nozikliklari bor. Ba’zan birgina so‘zning ortida butun bir hayotiy tajriba, milliy urf-odat yoki xalqona qarash yashiringan bo‘ladi. Uni boshqa tilda shunchaki so‘zma-so‘z berish bilan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Tarjimon asarning ruhini saqlab qolishi kerak. Bu katta bilim va mahorat talab qiladi. Eng muhimi, o‘z ishiga mehri baland bo‘lsa, u oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishadi. Buni men o‘z faoliyatim misolida ko‘ryapman. Shu ma’noda, o‘zbek zabonini mehr tili deb atayman. Kelgusida ham o‘zbek adiblarining eng sara asarlarini turk kitobxonlariga yetkazishga intilaman.

Xalqlarni birlashtiruvchi ko‘prik

Xan YuSIN,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida tashkil etilgan “O‘zbek maktabi” o‘quvchisi (Xitoy):

– O‘zbekcha ismim Yorqinoy. Uni lug‘atlarni varaqlab, o‘zim tanladim. “Nurli yuzli”, “go‘zal chehrali”, “xush fe’lli”, “yoqimtoy” ma’nolarini berarkan. Qarang, bir so‘zda shuncha ma’no! Bu ham o‘zbek tilining latofatidan nishona.

Bu latif zabonni bir yildan beri o‘rganyapman. Asosiy maqsadim – o‘zbek xalqining tarixi va madaniyatini chuqurroq bilish, o‘zbek tilida erkin muloqot qila olishdir. Menimcha, til o‘rganish faqat yangi so‘zlarni eslab qolish yoki grammatik qoidalarni o‘zlashtirish degani emas. Bu, avvalo, boshqa millatning dunyoqarashi, urf-odatlari, qadriyatlari va turmush tarzini tushunish demakdir.



Shu ma’noda, “O‘zbek maktabi”da til borasidagi bilimlarimizni kengaytiribgina qolmay, xalqingizning boy madaniyati bilan ham tanishyapmiz. O‘zbek milliy taomlari, tarixiy obidalari, milliy bayramlari va an’analari menda katta taassurot qoldirdi. Bu yerda samimiy va mehmondo‘st insonlar bilan muloqot qilish, yangi do‘stlar orttirish imkoniyatiga ega bo‘lganimdan xursandman.

O‘zbek tilining lug‘at boyligi va ifoda imkoniyatlari juda keng. Unda har qanday fikrni, hissiyotni bayon etish mumkin. Bu tilda so‘zlaganda inson qalbida samimiyat, mehr va hurmat uyg‘onadi. U orqali xalqning tarixi, madaniyati va ruhi seziladi.

O‘zbek tili jahon lisonlari qatorida munosib o‘rin egallashiga ishonaman. Chunki O‘zbekiston bugun dunyoga yuz ochmoqda. Tili nufuzli xalqaro minbarlardan yangrayotir.

Kelajakda o‘zbek tilini mukammal o‘rganib, xitoy adabiyoti namunalarini o‘zbekchaga, o‘zbek xalqining badiiy durdonalarini xitoy tiliga tarjima qilish niyatidaman. Shuningdek, o‘zbek xalqining madaniyati va an’analarini boshqa insonlarga ham tanitishni istayman. Menimcha, til bilish inson uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi va turli xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlaydi.

“Xalq so‘zi”.

28-oktyabr kuni poytaxtimizda “Markaziy Osiyo – ta’lim, fan va innovatsiyalarning yangi makoni” mavzuida xalqaro forum bo‘lib o‘tadi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-942. 19 279 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G‘. Bahromov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 23.10 Topshirildi – 00.45 1 2 3 4 5 6